

## MUROD MUHAMMAD DO'ST ASARLARIDA DIALEKTIZMLAR

Nazira Uralovna Berdiyeva

Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lif kafedrasini  
o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Dialektizmlar milliy tilning ajralmas qismi sifatida badiiy asarlarda ham o'z o'rniga ega. Dialektlardan o'z o'rnida va unumli foydalanish yozuvchi mahoratida dalolatdir. Murod Muhammad Do'st asarlarida dialektizmlardan keng foydalangan. Negaki uning qahramonlari oddiy odamlar. Ushbu maqolada dialektizmlarning badiiy asarlardagi o'rni, Murod Muhammad Do'stning dialektizmlardan foydalanish mahoratini ohib berishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** Dialekt, dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, qipchoq lahjasi, personaj nutqi

### KIRISH

Badiiy ijodda dialektizmlar narsa, voqealarga mahalliy tus berish uchun qo'llaniladi. Dialektizmlar personajlar nutqini individuallashtirish uchun foydalilanadi. Biroq bunday qo'llash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. Dialektizmlardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiyligini, uslubning fazilatini, ta'sirchanligini oshiradi.